



XORAZIM DOSTONCHILIK AN'ANALARINI ILMIY O'RGANILISH JARAYONLARI

Muallif: Axmedov Nosirbek Shuhrat o'g'li ¹

Affilyatsiya: Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378275>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek dostonchiligining tarixiy tamoyillari uning tadqiq etilishi XX asrdan boshlab o'zbek paetik ijodining ilmiy o'rganilishi jumladan, Xorazm dostonchilik maktabi, undagi yo'nalishlar hamda ularning farqli va o'xshash jihatlari, maktab ustoz shogirt an'anasi, ijro etiladigan asarlar bilan bir qatorda variantlari haqidagi malumotlar keltiriladi

Kalit so'zlar: Doston, baxshi, san'at, ijrochi, Shirvoni, Eroyiy, tor, qo'shnay, jirov, qo'biz, folklor, etnografiya, eskpiditsiya, gramafon.

O'zbek xalq dostoni faqat XX asrning birinchi choragidan boshlab ilmiy to'plash va o'rganish, keng jamoatchilik qiziqishi mavzusiga aylandi. Undan oldin nafaqat G'arbda, balki shu davirdagi birona sharq mamlakatlarida han o'zbek xalqi o'z dostonlarini saqlab qolmagan degan noto'g'ri fikr bor edi. Ayniqsa bu davirda o'zbeklarda nafaqat epik dostonlar balki muntaz sheri namunalarini ham deyarli yo'qolgan degan fikrlar mavjud edi. Aslida esa yurtimizda yashab o'tgan ajdodlarimiz qalamiga mansub ko'plab qadim qo'lyozma kitoblarida o'zida choqur falsafiy va didaktik qarashlarni mujassam etgan sheri namunalar, xalq og'zaki ijodining yirik namunalaridan esa dostonlar hanuzustoz shogirt an'anasi shaklida saqlanib qolganligi, nafaqat saqlangan balki og'izdan -og'izga o'tib kelayotgandan bexabar edilar.

XX asrning boshlarida o'zbek folklorshunoslari tomonidan amalga oshirilgan etonogarafik ekspiditsiyalarda xalq og'zaki ijodi namunalarini ulkan yig'ish ishlari natijasida o'zbek xalqining epik ijodi o'zining ajoyib boyligi va xilma-xilligi bilan tadqiqotchilarini haratga soldi. O'tgan asrning birinchi yarmida 50 dan ortiq turli xil katta kichik dostonlar yozib olingan. Bundan tashqari, folklorshunoslarga faqat nomi bilan ma'lum bo'lgan, ammo hali ham yozilmagan kamida 50 ta boshqa asarlar mavjud edi. O'zbekistonning turli hududlarida tadqiqotchi olimlar uchun hanuz qilinishi kerak bo'lgan ko'plab ishlar, yozib olinmagan epik asarlar birqancha variantlari bilan mavj bo'lgan.

Ushbu repertuarining faqat bir qismi qayd etilgan, ammo turli xil hikoyachilar orasida bir xil she'rning turli xil variantlarini taqqoslash allaqachon jonli va rivojlanayotgan epik an'analarning ijodiy xilma-xilligini ochib beradi. O'zbek xalq dostoni ko'p asrlik tarixga ega. Zamonaviy og'zaki ijodning har bir asarida, ayniqsa xalq dostonida, ba'zan qadimgi davrlarga borib taqaladigan qatlamlarni ochish mumkin.

Ushbu dostonlarning eng qadimiylari birinchi yozma yodgorliklardan oldingi davrga borib taqaladi va qadimgi madaniy dunyo yozuvchilarining xabarlarida mavjud.

O'zbekiston hududida hozirgi kunga kelib xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston muxtor respublikasida ijro etiladi. Ijrochi baxshilar do'mbira, tor, dutor chertib, qo'biz tortib doston aytadilar. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm va Qoraqalpoq dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'iz ovozda, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan musiqa asbobiga mos holda kuylanadi.

Dostonchilik — xalq og'zaki poetik ijodidagi qadim epik an'ana. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. Keyinchalik XX-XI asrlarda do'mbira jo'rligida aytiladigan asarlari yuzaga kelgan.

Dunyodagi ayrim xalqlar o'zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. Biz o'zbeklarda bu janr "doston" deb ataladi. "Doston" so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. "Alpomish", Go'ro'g'li turkumidagi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Malikai Ayyor", "Ravshan", "Kuntug'mish", "Rustamxon" kabilar og'zaki dostonlar namunalari. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Navoiyning "Hayratul abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi asarlar esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Shuning uchun yozma adabiyotidagi dostonlarni og'zakidan ajratish lozim bo'ladi. Og'zaki ijoddagi doston bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Professor M. Saidov ularni she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, musiqadan, doston aytuvchining hofizlik san'atidan va soz cherta bilishdan iborat, deb qayd etadi. Shu bilan birga, doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar davrasida qaynab (ilhomga kirib) doston ijro etishga guvoh bo'lish ham muhimdir. Demak, doston bo'lishi uchun baxshining tinglovchi bilan jonli muloqatini ham tarkibiy qismlardan biri sifatida baholash mumkin.

Xorazm dostonchiligida dostonlar nasriy parchalardan va lirik she'rlardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi. Namanganda ham dostonlarning hajmi kichik, ammo ularning matnlari Samarqand dostonchiligi kabi nasrdan va epik she'riy parchalardan tashkil topadi.

Xorazm dostonlarida holat boshqacharoq. Bu dostonlarda voqeaning bayoni, ro'y bergan hodisa tafsiloti faqat nasrda ifodalanadi. Xorazm dostonchiligida dostonlar nasriy parchalardan va lirik she'rlardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi. She'riy parchalarda esa lirik his-tuyg'ular aks etadi. Yuqorida qayd etilgan dostonchilik an'analardan tashqari, ularning tarkibida dostonchilik maktablari ham mavjud. Bir an'ana doirasida doston mazmunidagi mohiyat saqlagan holda qahramonlar xatti-harakati, ruhiy kechinmalari yo'nalishini farqli tarzda namoyon qilish dostonchilik maktablari tushunchasini izohlaydi. Dostonchilik maktablari haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi ma'lumotni keltirish o'rinlidir.

Xorazm dostonchiligi musiqiyiligi, dostonni jo'r ovoz bo'lib ijro etilishi, doston ijrosida bir necha musiqa asboblari jo'r bo'linishi bilan ajralib turadi. Qadimgi sayllarda, to'ylarda 3-4 ta baxshi chaqirilgan va har bir baxshiga alohida-alohida davra

berilgan. Sayil yakunida mohir baxshi atrofidagi odamlar ko'payib, saviyasi past baxshi atrofida hech kim qolmagan. Bu odat san'atkorning o'z ustida muttasil ish olib borishga va ijro san'atini egallashga majbur qilgan. Undan tashqari, Xorazmda 40 yildan ortiq xonlik qilgan Muhammad Rahimxon (Feruz) har yili baxshi va xonandalarning ko'rigini o'tkazib, shaxsan o'zi ularga doston aytish huquqini bergan. Bu maktabda Amad baxshi, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Boltavoy baxshi, Qodir sozchi, Murod Baxshi, Ro'zimbek baxshi, Otaxon baxshilar ijod qilishgan va "Bozirgon", "Oshiq g'arib va Shohsanam", "Qirq ming", "Oshiq Mahmud" kabi dostonlarni katta kontsert dasturini eslatadigan tomosha tarzida ijro etishgan.

Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismini romanik dostonlar tashkil qiladi. Ishqiy dostonlar deganda, xalq dostonlarining mazmuni sevgi-sarguzashtlarni tasvirlovchi turlari tasavvur qilinadi. Ularda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Keyinchalik qahramon ishq sarguzashtlariga boy safarga o'tlanadi. Bu yo'lda turli qiziqarli, hayratomuz hayot lavhalarini ro'y beradi. Dushmanlar bilan yakkama-yakka olishuvlar bo'ladi. Dostondagi voqealar rivoji shu tarzda taraqqiy etadi va oxir-pirovardida oshiq o'z orzusiga etadi.

Umuman olganda Xorazm dostonlari ko'proq musiqiylashgan. Ularda voqealar bosqichma-bosqich bayon etilishi bilan bog'liq she'riy matnlar ham qo'shiqchilikka ko'proq moslangan. Dostonchi nomalarni yuqorida aytilganidek, "ochiq", ya'ni tabiiy ovozda kuylaydi. Unga ko'pincha dutor, bo'lamon, g'ijjak va doira jo'rlik qiladi. Ma'lumki, ayrim xorazmlik dostonchilar so'nggi 70-80 yil davomida ozarbayjon torida chalishni o'zlashtirib, uni o'z cholg'u jo'rnavozligi uchun qo'llab kelishgan".

Xorazm dostonlari yuzasidan so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida yangi, e'tiborga sazovor ma'lumotlar topildi. Binobarin, mavjud doston nomalari o'zining umummushtarak adabiy-musiqiy sifatlari qatori, ayni paytda, qisman sezilarli darajadagi ichki xilma-xillikni ham qamrab olgan ekan. Misol tariqasida, sof musiqiy uslubiyati va xislatlarini nazarda tutgan holda barcha Xorazm dostonlarini "Shirvoniy" yoki "Eroniy" nomli ikki asosiy yo'nalishga, bir qator ijod va ijro "maktablariga" mansubligini qayd qilish mumkin. Ushbu vohada o'nlab turli mavzularga bag'ishlangan katta-kichik dostonlar juda keng tarqalgan. Bulardan eng mashhurlari, jumladan, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Avazxon", "Boziryon", "Xirmondali", "Yusuf va Zulayho", "Rustamxon" va boshqalardir.

XX asrlardan boshlab, tor, qo'shnay, doira, garmon jo'rligida shakllangan. Har bir dostonda 15 tadan 36 tagacha poetik yo'llar mavjud bo'lib, ularning har biri takrorlanmagan. Terma janridan tashqari Xorazm dostonchiligida qo'shiq, yalla, ashula janrlari ham o'rin olgan. Doston qo'shiqlari, Xorazm vohasida keng tarqalgan bo'lib, uning kuylari "nola" yoki "nolish" deb atalgan. Har bir nola o'z nomiga ega holda saqlangan. Bu kuylar o'zining milliy o'zining xos kuychanligi, xushyoquvchiligi, ohangdorligi bilan ajralib turadi.

Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o'zig xos xususiyatlarga ega. "Go'ro'g'li" dostonining 100 dan ortiq varianti keng tarqalgan. Boshqa voha dostonchilik maktablaridan farqli o'laroq, "Alpomish" qahramonlik dostoni bu voha dostonchiligida uchramaydi. Xorazmda etakchi o'rinni egallagan ishqiy- ishqiy dostonlarning aksariyati boshqa dostonchilik maktablari repertuarida uchramasligi ham bu o'lka san'atining

farqli xususiyatlaridan biridir. Xorazmda ham erkak baxshilar bilan bir qatorda ayol baxshi ijrochilari ham ancha mashxur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Aminov A. (2017). "Xorazmning madaniy tarixida baxshichilik an'analari". Toshkent: Fan nashriyoti.

Jo'rayev, N. (2004). "O'zbek xalq baxshichiligi". Toshkent: Ma'naviyat.

Muminov, A. (1997). "Doston va baxshichilik san'ati". Toshkent: Sharq nashriyoti.

Nazarov, Q. (2016). "Xorazm baxshi-dostonchiligining badiiy xususiyatlari". Toshkent: Fan va texnologiya.

Reichl, K. (2012). "Oral Epic Traditions in Central Asia". London: Routledge.

Sokolov, Yu. M. (1976). "Narodnaya poezia i ee issledovanie". Moskva: Nauka.

"Xorazm baxshilarining repertuarlari" (2015). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.

